

3-mavzu: Bizning oila. Alifbe qahramonlari bilan tanishuv.

Dars maqsadi:

- alifbe qahramonlarini tanib oladilar;
- so`zni bo`g`inga bo`lish haqida tushuncha ega bo`ladilar;
- so`zni bo`g`inga bo`lib, uning chizmasini chizishni o'rganadilar;

Tayanch so'zlar: nutq, gap, so'z, bo`g`in, so`zni bo`g`inga bo`lish chizmasi.

Didaktik materiallar: rasmi li kartochkalar.

Darsning borishi:

I.Kirish qismi (5 daqiqa)

Faollashtirish mashqi:

Kalendar : O'quvchilardan bugungi kun sanasi so'raladi.

Tanishuv mashqi: O'qituvchi o'quvchilarga biron - bir meva rasmini ko`rsatadi. Uni kim yoqtirishini so`raydi. O'quvchilar ismlarini aytib javob beradilar. Mashq bir necha xil meva nomini aytib o'tkaziladi.

- Bugun siz bilan "Tanishuv" mashqini o'tkazamiz. Men sizga biron – bir mevani nomini aytaman. Siz esa, agar shu mevani yoqtirsangiz ismingizni aytib o'rningizdan turing.

Asosiy qism (40 daqiqa)

1.Amaliy topshiriq bajarish: (5 daqiqa)

O'quvchilar juftlikda ishlaydilar. Darslikda berilgan rasmga qarab gap tuzadilar.

Darslikda berilgan rasmga qarang. Partadoshingizga berilgan chizma asosida gaplar tuzing.

Amaliy topshiriqni muhokama qilish:

- Rasmni tasvirlashda qanday gaplar tuzdingiz?
- O`rtog`ingiz tuzgan gapni aytib bering.

- Kim tuzgan gap chizma asosida tuzilgan?
- Qaysi gap sizga yoqtin?

Javoblar xulosalanib, yangi mavzu tushuntiriladi.

2.Mavzuni tushuntirish: (15 daqiqa)

3-dars Mening olim

Sö'zlarni bo'g'lnlarga bo'lish

Oila

Oila desam, bri tan,
Biri jondek ko'rinar.
Mo'jazning mustahkam
Bir vatandek ko'rinar.
Oila – otam; oila – onam,
Oila – ukam ko'zları.
Oila – singlim; oila – bobom,
Buvijonim sö'zları.
Men ulardan o'zimni.
Tasavvur etman ayro.
Oila – kichik vatanim,
Men jilg'aman, u – daryo.

Zahra Hasanova

Alifbe qahramonlari bilan tanishuv

Akmal

Mening ismim Akmal.
Men atrofimizdag'i olamni
organishga qiziqaman.

Aziza

Mening ismim Aziza.
Men matematika va
sportni yaxshi ko'ruman.

Biz Akmal bilan egizaklarmiz.

Madina

Men esa Jasurman. Men
musiga cholg'u asboblarini
chalishni bilaman.

Jasur

10

11

Darslikdagi rasm asosida Oila haqida suhbat o'tkaziladi.

Rasmda kimlarni ko'ryapsiz ?

Ular nima qilishyapti ?

So`zlarni bo`g'lnlarga bo'lish mumkinligi tushuntiriladi. Doskada so`z chizmasi qanday bo`lishi esga olinadi. Uni qanday qilib chizmada bo`g'inga bo`lishni ko`rsatiladi. Oila a'zolarini bildiruvchi so`zlar bo`ginga bo`linadi.

Eslatma : Gaplar xabar va so'roq mazmunda bo'lishiga misol keltirilishi va gap chizmaga mos bo'lishiga e'tibor qaratish lozim. Rasm asosida matn tuziladi.

Tuzilgan matndagi gaplarga ajratiladi. Gaplar esa so`zlarga ajratiladi.

Darslikdagi chizmaga mos gaplar tuziladi.

Quyidagicha matn tuzish mumkin.

Bu bizning oila.

Olamiz olti kishidan iborat.

O'qituvchi uchun eslatma

Gap so`zlardan tuziladi. So`zlar bo`g`inlarga bo`linadi. So`zdagi unli tovushlar soniga qarab bo`g`inlar sonini aniqlash mumkin.

Tinglab tushunish ; (5 daqiqa)

Z. Hasanovaning “ Oilam” she’ri o‘qib beriladi. She’r nima haqida ekanligi haqida suhbatlashiladi.

Eslatma: She’rni o‘qishni biladigan o‘quvchilarga ham o‘qitish mumkin.

Darslik bilan ishlash: (7 daqiqa)

Darslikda berilgan alifbe qahramonlari bilan o‘quvchilarni tanishtiriladi.

Akmal-atrofimizdagi olamni o‘rganishga qiziqadi.

Aziza- matematika va sportni yaxshi ko‘radi.

Madina- Akmal bilan egizak. U juda qiziquivchan va quvnoq.

Jasur-musiqa cholg‘u asboslarini chalishni biladi.

Har bir bolaning ismi bo‘g‘inga ajratiladi.

Daftар bilan ishlsh: (8 daqiqa)

1. *Oila a’zolaringizni hissiyotlar bilan ifodalab chizing.*
2. *“Mening oilam” mavzusida rasm chizing.*

Darsga yakun yasash:

Darsda sizga nimalar yoqdi?

-Darsdan nimalarni eslab qoldingiz?

-Bolajonlar siz qanday rasmlarni bo`yadingiz?

4-mavzu: Men va atrofimizdagi olam. Unli va undosh tovush haqida tushuncha.

Dars maqsadi:

- tovush haqida ma’lumot oladilar;
- unli va undosh tovush haqida tushunchaga ega bo`ladilar;
- so`zni tovushlarga bo`lib, uning chizmasini chizishni o’rganadilar;